

G'AROYIB TEGIRMON

(Venger xalq ertaklari)

Bu gaplar o'zi yo'q joyda bo'lgan ekan, u joyni so'rasangiz ummonning naryog'i-yu yana uch qadam orqada joylashgan ekan, cho'chqacha og'aynilariga gajak dumi bilan yer kavlashni o'rgatar ekan... O'sha yurtlarda bir kambag'al odam yashar ekan. Uning bolalari elakning teshiklaricha ko'p bo'lib, yana bitta ortiqchasi ham bor ekan.

Bolalari o'ziga yetib ortar ekan-u, ammo ularni qanday boqib katta qilish kambag'alni o'ylatib qo'yibdi. Uning hisobida bor-yo'g'i ikkitagina ho'kiz bor ekan. Koshkiydi ho'kizlari odatdagi ho'kizlardan bo'lsa, kattaligi no'xatdek-no'xatdek kelarmish — yerdan ko'rinmasmish.

Shunday qilib desangiz, kambag'al bilan xotinining boshi qotgandan qotibdi. Nima qilish kerak, bolalarni qanday boqishadi?

Qanday alamli o'y-tashvishlar bilan uxlagani yotishsa, xuddi shunday alamli o'ylar bilan saharlab uyqudan turishar ekan. Ular chekmagan dard, tortmagan alam qolmabdi, ammo baxt-omad degan gaplar hech yaqin yo'lay demabdi. Eh, dunyo o'zi shunaqa ekan-da, kambag'aldan omad ham qochib yurarkan.

Bir kuni er xotiniga debdi:

- Miyamga bir narsa keldi, xotin, mana shu ushoq ho'kizlarni olib o'rmonga boray, juda bo'lmasa shox-shabba terib kelarman. Kim biladi deysan, balki biron yaxshi mo'jiza sodir bo'lib qolar.

U tilsiz jonivorlarni o'zlariga munosib keladigan aravaga qo'shibdi-da, o'rmonga ravona bo'libdi.

Kambag'al o'rmonda ketib borarkan, qurigan shox-shabбалarni terib, aravaga joylay boshlabdi. Bundoq qarasa, ko'm-ko'k o'tloqzorda bir qizcha bilan bir bola u yoq-bu yoqqa chopib, o'ynab yuribdi.

Kambag'al bolalarning oldiga boribdi-da, ularni gapga sola boshlabdi. Ma'lum bo'lishicha, qizaloq — Sharqiy mamlakat qirolining qizi, o'g'il bola esa G'arbiy mamlakat qirolining o'g'li ekan. Sizga shuni aytib qo'yishim lozimki, o'sha joylarda xuddi ana shunday mamlakatlar bo'lgan ekan: mamlakatlarning bittasida quyosh chiqsa, ikkinchisida quyosh botar ekan, haligi o'tloqzordan esa shu ikkala mamlakatning chegarasi o'tar ekan.

Ular o'tloqzorda shunday gaplashib turishganda birdan bolalarning ko'zi mitti ho'kizchalarga tushibdi, ayniqsa ho'kizlar bolaga juda yoqib qolibdi, kambag'aldan «ho'kizlaringizni menga bering» deb iltimos qila boshlabdi va to kambag'al «ola qol» demaguncha hol-joniga qo'ymabdi.

Kambag'al o'zining bisotidagi oxirgi mulkidan ajrashishni hech xohlamas ekan-u, biroq bolaning bunaqa yalinishiga chidab turolmabdi, buning ustiga bolakay otam sizga katta yaxshilik qiladilar, deb va'da beribdi. Kambag'al xo'p deyishga xo'p deb qo'yibdi-yu, lekin yuragini otning kallasidek g'ashlik kemira boshlabdi. Uning dilidan nima kechayotganini sezgan bola shunday debdi:

- Amakijon, ho'kizlarimni bola haydab ketdi, deb bekorga xafa bo'lmang. Ertagayoq otamning oldilariga boring, u kishi sizni rozi qilib yuboradilar.

Shunday qilib bola mitti ho'kizchalarni saroyga haydab ketibdi, kambag'al esa aravaga shox-shabбалarni bosibdi-da, o'lib-tirilib o'zi tortib ketibdi. Uyiga yetib kelguncha naq joni halqumiga kelibdi.

Eh, o'shanda uydagi mojaroni bir ko'rsangiz edi! Bir hisobdan ko'rmaganingiz ham yaxshi bo'lgan: sho'rlik xotin sochlarini yulib, yuzlarini timdalab, yer mushtlab shunaqangi uvvos tortib yig'labdiki, qo'yaverasiz! Eriga, tentak bo'lmasangiz, hovlingizdagi ko'zga surgan yakkayu yagona mulkingiz — mitti qo'sh ho'kizni birovga

berib kelasizmi, hech bo'lmasa mana bu juldurvoqi zumrashalaringizning bitta-yu bitta ermagi shu edi-ku, deb bir qur xayolingizga keltirsangiz bo'lmasmidi, usiz ham boyo'g'li kirmaydigan hovlingizni shunaqa huvillatib qo'yasizmi, deb shu malomat yog'dira ketibdi, shu malomat yog'dira ketibdi!

Kambag'al xotinini yupatishga tushibdi: ho'kizlarimiz yomon joyga tushmadi, o'rniga yuz hissa qilib qaytarishadi, xudo xohlasa yeganimiz oldimizda, yemaganimiz ketimizda bo'ladi, debdi. Xotini bo'lsa uning basharasiga qarashga ham toqat qilolmay uv tortib yig'lar ekan. Oxiri uning diydiyolarini eshitishga kambag'alning yuragi chidamabdi, tun-oqshom bo'lishi bilan kun botish mamlakati qirolining saroyini qidirib ketibdi.

Omadini qarangki, saroy unchalik ham uzoqda emas ekan, bir kechagina yo'l yuribdi-yu, ertalab qarasa — qidirgan joyiga kelib turibdi.

Kambag'al saroy hovlisiga kiribdi, u yerda shahzoda mitti ho'kizlar bilan o'ynab yurgan ekan, xuddi qo'shchilarday yer haydayotgan kishi bo'lib, «qo'sh, qo'sh» deb ho'kizlarni goh u yoqqa, goh bu yoqqa haydar ekan.

Kambag'alni ko'rib bola suyunib ketibdi, yugurib kelib qo'lidan tutibdi-da, ichkariga yetaklab ketibdi.

- Kelganingiz juda yaxshi bo'ldi-da, amakijon, men otamga hammasini aytdim. Endi sizga bir narsani aytib qo'yay: otamdan hech narsa olmang, faqat birgina g'aroyib mitti tegirmonni so'rang.

Kambag'al qirolning huzuriga kiribdi, o'zini tanishtiribdi, men o'sha, haligi... mitti qo'sh ho'kizning egasi bo'laman, debdi.

Xo'sh, yaxshi odam, mendan istagan narsangni so'rayver, — debdi qirol. — Sen suyuqli o'g'limning juda ko'nglidagi narsani beribsan.

Kambag'al qarasa, stol ustida g'aroyib mitti tegirmon turganmish. Shunchalik kichkinaki, kaftga joylasa bo'larkan.

«Eh, — deb ko'nglidan kechiribdi kambag'al, — ho'kizlarim evaziga mukofotning juda zo'rini olarkanman-da! Aftidan bola shahzoda o'ziga o'yinchoq ho'kizlarni olib, menga ham o'yinchoq bilan qaytarishni o'ylabdi-da. Nachora, shu bilan bolakay xursand bo'lsa bo'la qolsin».

- Oliy hazratlari, — debdi kambag'al qirolga murojaat qilib, — ho'kizlarim juda kichkina, siz o'ylaganday katta mukofotga arzimaydi ham. Menga mana bu o'yinchoq tegirmonni bersangiz bo'lgani.

O'shanda qirolning yuzi qanday oqarib, hatto bir tomonga qiyshayib ketganini bir ko'rsangiz edi!

- Tortinma, aytdim-ku, mendan istagan narsangni so'rayver deb, — debdi u kambag'alga tutila-tutila, — ko'targaningcha hammasini olaver, faqat bu tegirmonni so'rama.

«Mana gap qayoqda ekan, — deb o'ylabdi kambag'al, — bu tegirmon o'yinchoq emas ekan-da, shuning uchun ham uni qirolning ko'zi qiymayapti, jonini sug'urib olgandek bo'layapti!»

Tashida ehtirom bilan debdi:

- E-yo'q, ulug' qirol, mushtday-mushtday ikkita ho'kizimga qimmatbaho sovg'ani qanday olaman! Yo'q, menga hech narsa kerakmas, oliy hazratlari, menga mana shu tegirmonchani bersangiz, kifoya. Bolalarimga ermak bo'ladi — o'ynab o'tirishadi-da.

Qirol o'g'lini chindan yaxshi ko'rar ekan, shu o'g'li uchun kambag'alni xafa qilgisi kelmasdi — tegirmonchani unga berib yuboribdi.

Kambag'al tegirmonni olib chiqib ketayotgan ekan, orqasidan qirol shunday debdi:

- Menga qara, kambag'al, aytib qo'yay: mabodo arzon baholabman, deb o'ylasang, tegirmonni qaytarib olib kel, men senga durustroq narsa berarman!

Hovlida shahzoda kambag'alga debdi:

- Tegirmonchani olib, o'rniga boshqa narsani olmay juda yaxshi qilibsiz, amaki.

- Senga to'g'risini aytsam, shahzodam, — debdi o'zini tutolmay kambag'al uh tortib, hozir dunyo ko'zimga qorong'i. Nega desang, xotinimning ko'ziga qanday ko'rinishni bilmayman. Kecha ho'kizlarsiz kirib borganimga shu qiyomat qildiki, kechgacha meni itday g'ajidi. Endi ho'kizlar o'rniga mana bu o'yinchoqni ko'tarib kirib borsam, nima bo'larkin?

- Siqilmang, amakijon, bemalol uyga boravering. Men nima deytganimni bilaman. Uyda tegirmonni stolga qo'yib: «G'aroyib tegirmoncha, menga oltin tanga tortib ber, qovurdog'u qaynatmalar qilib ber!» deng. Qarabsizki, aytganingiz muhayyo bo'lib turibdi. Qancha xohlasangiz, shuncha tayyorlab beradi. Keyin: «Bo'ldi, bas» desangiz, taqqa to'xtaydi.

Kambag'al suyunib ketibdi, shahzodaga rahmatlar aytibdi, tegirmonchani qo'ltig'iga qisib, uyi tomon shamolday yelib ketibdi.

Shunday chopib ketayotgan ekan, bir vaqt qarasa ro'parasidan qop-qora bir narsa ko'riniydi — bulut bo'lib bulut emas-u, osmonning teng yarmini qoplab olganmish. Kambag'al to'xtabdi-da, bu nima balo bo'ldi ekan, deb o'ylay boshlabdi. Qora bulut tobora yaqinlashib kelaveribdi. Bilasizmi, u nima ekan? Juda ham ulkan shlyapa ekan!

Kambag'al shlyapa tagidagi odamni zo'rg'a ilg'abdi. U odam xuddi kuzgi karaxt pashshaga o'xshab, oyoqlari chalishib-chalishib bazo'r qadam tashlab kelayotganmish.

Buni ko'rib kambag'al yengil tortibdi, yaqinroq borib hazillashib so'rabdi:

- Hoy hamqishloq, shlyapang torlik qilmayaptimi?

- Hazilga balo bormi? — javob qilibdi shlyapa tagidagi odam, — undan ko'ra bir burda non bersang-chi, uch kundan beri tuz totganim yo'q.

- Bosh ustiga edi-yu, — debdi kambag'al, — faqat yonimda hech vaqo yo'q-da.

U cho'ntaklarini ag'darib ko'rsatibdi: rostdanam bari bo'm-bo'sh ekan.

Kambag'al birdan eslab qolibdi: mana bu g'aroyib tegirmon bor-ku! Qani, shahzoda to'g'ri aytdimi yo aldadimi, bir tekshirib ko'rish kerak.

Kambag'al tegirmonni yerga qo'yib, asta:

- Hoy g'aroyib tegirmon, menga har xil taomlardan tortib ber, qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi, — debdi.

U gapini tugatar-tugatmas tegirmoncha ishga tushib ketibdi, g'ildiraklari shirillab aylanibdi, undan hatto qirol ham totib ko'rmagan sarxil taomlar to'kilib tusha boshlabdi. Birpasda shunchalik ko'p taom ishlab chiqaribdiki, butun bir qishloqni to'ydirsa bo'lar ekan. Kambag'al qo'rqib qichqirib yuboribdi:

- Bas, g'aroyib tegirmon, to'xta!

Yo'lovchilar maysa ustiga o'tirib, ovqatlarning changini chiqara ketibdi-ku! Keyin ko'ngilxushlik boshlanibdi, qo'shiq aytishibdi, o'yin tushishibdi, undan so'ng yana maysaga yonboshlab gurung boshlab yuborishibdi. Yangi yo'lovchi kambag'alga debdi:

- Ha, hamqishloq, tegirmoning zo'r ekan, ammo mening shlyapam ham undan qolishmaydi. Kel, almashamiz.

- Nimalar deyapsan, qardosh, — deb javob qilibdi kambag'al, — aqlimni mog'or bosganicha yo'q, mening bu mo'jizali tegirmoncham xotin, bola-chaqamni yoshimizni yashab, oshimizni oshab bo'lguncha va yana ikki kun boqa oladi. Sening shlyapang-chi, ekinga qo'riqchi qilib qo'yishga ham yaramaydi.

- Shunaqami? — kulibdi haligi odam. — Unday bo'lsa ikkoviga ham qarab tur, mo'jiza ko'rmagan bo'lsang, mana, endi ko'rasan.

- U boshidan shlyapani olib debdi:

- Shlyapa, o'q uz!

- Eh, o'shanda sizning bo'lmaganingiz chatoq bo'lgan, yo'qsa qanaqa otishma bo'lganini bir ko'rib qo'yar edingiz. O'q degani yomg'irday yog'ibdi. «Paq-paq, paqa-paq-paq, papaq!» — shlyapa to'g'ri kelganni tutday to'kayapti. Agar xo'jayini: «Bas qil, shlyapa!» demaganida, otishma qachon tugashini xudo bilardi!

- Ha-ha, — debdi kambag'al, — bundan chiqdi sening shlyapang ham oddiy emas ekan. Baribir menga uning bir chaqalik qimmatini yo'q. Qon dushmanim bo'lmasa, jo'jabirday ro'zg'orimni tebratishga esa butunlay yaramaydi.

Lekin shlyapaning egasi qo'ymabdi, otang yaxshi, onang yaxshi debdi, u yog'idan o'tibdi, bu yog'idan o'tibdi, undoq yaxshilik qilaman, bundoq yaxshilik qilaman deb boshini aylantiribdi — oxiri unatib olibdi.

Xayrlashib, har qaysisi o'z yo'liga qarab ketibdi — notanish odam tegirmonchani olib deyarli o'qday uchib, zumda o'rmonga kirib g'oyib bo'libdi, kambag'al bo'lsa ikki qadam yurar-yurmas boshini changallabdi: «Nima qilib qo'ydim o'zi? Ahmoqman! Shayton yo'ldan ozdirdi, xudo urdi!...»

Sho'rlik chuqur qayg'uga botgancha oyoqlarini bazo'r sudrab ketaveribdi, butun gavdasi bilan hassaga suyanib olgan emish. Ha, esimda borida aytib qo'yay: o'y-xayoli tegirmonda bo'lib azbaroyi shoshganidan bu hassani notanish odam dalada unutib qoldirgan ekan. Yo'lda bitta-yarimta bezori hujum qilsa, qo'l kelib qolar deb kambag'al hassani olib olgan ekan.

Kambag'al uyiga yaqinlashgan sayin yuragidagi o'n g'am ustiga bir g'am qo'shilaveribdi. Birdan hassa tilga kirib so'rabdi:

- Nimaga buncha qayg'urayapsan, egam?

Kambag'al taxta bo'lib qolibdi, ko'zlari kosasidan chiqibdi: yo alhazar, hassa gapirdimi?!

Hassa yana savolini takrorlabdi:

- Nimaga buncha qayg'urayapsan, egam?

- Nimaga bo'lardi, xudo aqlimdan judo qilganiga-da, — javob qaytaribdi kambag'al, — yana tegirmoncha bor edi-ku, o'shaning qayg'usi ham kuydirayapti meni.

U shunday deyishi hamon hassa uning qo'lidan sirg'alib chiqib, o'tlar orasiga kirib g'oyib bo'libdi, faqat shitir-shitiri eshitilibdi, xolos. Kambag'al sarosimalanib, orqasidan ag'rayib qarab qolibdi, bir vaqt ne ko'z bilan ko'rsinki, hassa tegirmonchani ergashtirib to'g'ri shu yoqqa qarab kelayapti!

Boshqa nima ham derdim? O'shandan buyon kambag'al g'am-qayg'ularini unutibdi, qishloqda hurmati oshib ketibdi, u o'zining g'aroyib tegirmonchasi bilan qarindosh-u begona — hammaning qornini to'yg'azar ekan. O'zi juda boyib ketibdi, oltita ho'kizda yer haydarkan, itiga ham yuvundi yo sarqitlarni bermay, toza ovqatlardan tashlar ekan.

Shu tariqa vaqt o'taveribdi. Kunlarning birida kechga yaqin kambag'al (bu o'sha o'zimizning kambag'al-da!) darvozasi oldida turgan ekan, ko'chadan uch kishi — ko'rinishidan janoblarga o'xshagan bir erkakning xotini va o'g'ilchasi bilan o'tib ketayotganini ko'ribdi. Kambag'al bundoq razm solib qarasa, yo tovba! — G'arbiy mamlakat qiroli bola-chaqasi bilan piyoda yurib kelayapti. Kambag'al yugurib ularga peshvoz chiqibdi, tavoze bilan ta'zim qilibdi-da, so'rabdi:

- Oliy hazratlari, tabarruk oyoqlaringizga jabr qilib nechuk yayov ketib bormoqdasiz?

- Eh kambag'al, — javob qilibdi qiroli, — sen so'rama, biz aytmaylik, boshimizga zo'r musibat tushgan. Shimoliy mamlakatning qiroli saltanatimni tortib olib, o'zimni saroydan haydab yubordi. Endi boshimiz oqqan tomonga ketayapmiz.

Shunaqa deng, hazrati qirol, — debdi kambagʻal, — qaygʻurmang, dardingizni yengillatish uchun yordamimni ayamayman, agar irganmasangiz, menikiga marhamat qilsangiz, yoʻl yurib toliqqandirsiz.

Sobiq kambagʻal qirolni yaxshilab mehmon qilibdi, xotini ham, oʻgʻli ham koʻz koʻrib, quloq eshitmagan ajoyib taomlardan burunlaridan chiqquncha yeyishibdi, dasturxonga nima kelsa paqqos tushiraverishibdi, yana barmoqlarini yalashibdi.

Charchagan yoʻlovchilar uxlagani yotganlaridan keyin kambagʻal boshiga shlyapasini bostirib kiyibdi, qoʻliga hassani olibdi va yoʻlga tushibdi — Shimoliy mamlakat qirolining qoʻshinini qidirib ketibdi.

Shundoq burunning tagida turgan narsani qidirishga na hojat? Shimoliy qirol Gʻarbiy mamlakatga son-sanoqsiz qoʻshinlarini keltirgan ekan, qoʻshinlari katta qora habash askarlar bilan toʻldirilgan ekan, askarlarning koʻpligidan igna tashlasa yerga tushmasmish.

Kambagʻal baland tepalikka chiqibdi, shlyapasini boshidan olibdi, uni chet el qoʻshinlari tomonga qaratib qoʻyibdi-da, buyruq beribdi:

- Shlyapa, oʻq uz!

Koʻmakka hassani yuboribdi.

- Savala ularni, — debdi hassaga, — qoq miyasiga tushiraver, bunaqa telba ochkoʻzlarga bosh ham hayf!

Oradan birmuncha vaqt oʻtibdi, bitta ham dushman omon qolmabdi, Shimoliy qirolga xabar yetkazadigan hech kim yoʻq emish.

Kambagʻal uyiga qaytib kelibdi, qirolga qarab debdi: shunaqa-shunaqa gaplar, saroyingizga bemalol qaytaverishingiz mumkin. Awaliga qirol uning gapiga ishonqiramabdi, jang maydonini koʻrganidan va bitta ham dushman omon qolmaganini bilganidan keyin ham koʻzlariga ishongisi kelmabdi. U kambagʻaldan hassa bilan shlyapani sotib olibdi, evaziga oltin-kumushlarni toʻkib beribdi, uni olti hoʻkizda xazinadan tashib keltirishibdi, bir hafta deganda zoʻrgʻa ulgurishibdi.

Bu orada yosh shahzoda ham voyaga yetib, Sharqiy mamlakat qirolining qiziga uylanibdi.

Toʻy juda ham zoʻr boʻlibdi, stolga hammani oʻtqazishibdi, sobiq kambagʻal esa mashhur chardash degan oʻyinm oʻynab beribdi, bu siz bilan biz biladigan chardash emaskan, ularning qishlogʻida oʻynaydigan chardash ekan.

Agar charchashmagan boʻlsa, hozir ham oʻynashayotgandir. Ertaga, kim biladi deysiz, birdan sizlarnikiga boramiz deb qolishadimi. Har qalay, koʻz-quloq boʻlib turgan yaxshi-da.

“Oltin shahzoda” kitobidan